

OILAVIY MUNOSABATLAR VA BOLA KOGNITIV RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

G'ofurova Ro'zixon Abduraxmon qizi

Farg'ona viloyati Quvasoy shahar

29-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarning bola kognitiv rivojlanishiga ta'siri, shuningdek, tafakkur, xotira, diqqat va nutq rivojlanishida oilaning o'rni psixologik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, sog'lom oilaviy muhitning bola intellektual rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila, kognitiv rivojlanish, tafakkur, diqqat, xotira, nutq, psixologik muhit, tarbiya, bola rivojlanishi, ijtimoiylashuv.

KIRISH

Bola rivojlanishida oila eng birinchi va eng muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Aynan oilada bola ilk muloqot ko'nikmalarini, emotsional munosabatlarni va atrof-muhitni anglash asoslarini o'zlashtiradi. Shu sababli oilaviy munosabatlar bolaning kognitiv rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kognitiv rivojlanish — bu bolaning tafakkur, diqqat, xotira, idrok va nutq kabi aqliy jarayonlarining bosqichma-bosqich shakllanishidir. Ushbu jarayonning sifatli kechishi ko'p jihatdan oiladagi psixologik muhitga bog'liq. Sog'lom oilaviy muhitda bola erkin fikr bildirishga, savol berishga va atrof-muhitni o'rganishga rag'bat topadi. Bunday sharoit uning tafakkurini rivojlantiradi va kognitiv faolligini oshiradi. Aksincha, doimiy nizolar va emotsional bosim mavjud bo'lgan oilalarda bolada xavotir, qo'rquv va passivlik kuchayishi mumkin. Oilaviy psixologik muvozanat deganda, oila a'zolari o'rtasida emotsional uyg'unlik, o'zaro tushunish, ruhiy barqarorlik va muloqotdagi sog'lomlik nazarda tutiladi. Bu holat oila muhitida har bir shaxs o'zini xavfsiz, qadrlangan va muhim his qilishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Psixologik muvozanatning mavjudligi o'zo'zini anglash, boshqalarni tushunish, muammolarga barqaror yondashish, nizolarsiz muloqot qilish kabi salmoqli

jihatlarni mustahkamlaydi. Aksincha, muvozanatsizlik hollari oiladagi ziddiyatlarni kuchaytiradi, bolalarda esa emotsional beqarorlik, o‘ziga ishonchsizlik, tajovuzkorlik yoki ichki chekinish kabi salbiy xususiyatlar shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Oilada hissiy xavfsizlik muhim tushuncha bo‘lib, bu har bir a‘zo, xususan bolalar, o‘zini hech qanday tahdidlarsiz, ayblovlarsiz va bosimsiz muhitda his qilishi mumkin bo‘lgan holatni anglatadi. Agar bola o‘zining his-tuyg‘ularini ochiq ifoda eta olsa, qarashlari tinglansa va qo‘llab-quvvatlansa, unda ichki barqarorlik shakllanadi. Bu esa keyinchalik ularning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki, do‘stlik munosabatlari, maktabdagi o‘zini tutishi va umuman ruhiy salomatligiga bevosita ta‘sir qiladi. Shu sababli, otaonalar bolalarning his-tuyg‘ulariga befarq bo‘lmasliklari, ularga emotsional javob bera olishlari va ular bilan ochiq muloqotda bo‘lishlari zarur.

Oilada emotsional intellektning mavjudligi psixologik muvozanatni ta‘minlovchi eng asosiy omillardan biridir. Emotsional intellekt deganda, o‘z va boshqalarning histuyg‘ularini anglay olish, ularni boshqara bilish, empatiya, o‘zini tutish, hissiy javob berish kabi ko‘nikmalar tushuniladi. Bu jihatlarda oila ichida sog‘lom muloqotni yo‘lga qo‘yadi. Masalan, ota o‘zining g‘azabini nazorat qila olmasa yoki ona bolaga nisbatan keskin emotsional reaksiya bildirsa, bu bola ruhiyatida qo‘rquv, ishonchsizlik yoki ijtimoiy yakkalanishga sabab bo‘ladi. Ammo aksincha holatda — ota-onalar o‘z emotsiyalarini boshqara olsa, bolaga muvozanatli va ijobiy kayfiyatda murojaat qilinsa, bu farzand tarbiyasida sog‘lom psixik muhitni shakllantiradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning ruhiy salomatligi ham katta ahamiyatga ega.

Agar ota-onaning o‘zida stress, xavotir, tushkunlik holatlari bo‘lsa, ular bu holatlarni bevosita yoki bilvosita tarzda bolaga uzatadi. Bu esa bolalarda psixologik noqulaylikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, ota-onalar o‘z psixologik holatlarini nazorat qila olishlari, kerak bo‘lsa psixologik yordamga murojaat etishlari tavsiya etiladi. Psixologik muvozanatni saqlashda oilaviy qadriyatlar, diniy-axloqiy me‘yorlar, madaniy muhit va iqtisodiy holat ham muhim omillar sifatida maydonga chiqadi.

Sog‘lom oilaviy muhitda har bir a‘zoning fikri qadrlanadi, erkin fikr bildirish huquqi tan olinadi va muloqotlar mehrga asoslanadi. Bu esa psixologik qo‘llabquvvatlovning

muhim shakllaridan biridir. Bola oilada tinglanishini, tushunilishini his qilsa, unda o'ziga bo'lgan ishonch ortadi. Shuningdek, ijobiy oilaviy tajriba orqali bola kelajakda o'z oilasini qurishda ham muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Teskari holatlarda esa — oilada janjallar, doimiy tanbeh, tahqir yoki befarqlik bo'lsa — bola yaqinlikdan qochadi, hissiy yakkalanishga yuz tutadi va bu holat ijtimoiy-ruhiy muammolarga olib keladi.

Oilaviy nizolarning mavjudligi har qanday jamiyatda kuzatiladi. Muhimi, bu nizolar qanday tarzda hal etiladi. Agar nizolarni murosaga asoslangan, tinch yo'l bilan yechish odati mavjud bo'lsa, bu oilaning psixologik salomatligini mustahkamlaydi.

Aksincha, nizolar og'ir so'zlar, kuch ishlatish, tahdid, inkor etish orqali hal qilinadigan bo'lsa, bu nafaqat kattalarning, balki bolalarning psixikasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, oilaviy muloqotni konflikt emas, tushunish va qo'llabquvvatlashga asoslangan tarzda yo'lga qo'yish zarur.

Farzand tarbiyasida rollar va mas'uliyatlar to'g'ri taqsimlangan bo'lishi ham muvozanatni ta'minlaydi. Ota va ona bir-birining roli, funktsiyasi va hissiy yukini qadrlab, tarbiyaviy jarayonda faol ishtirok etishi kerak. Bir tomonlama yoki faqat bitta ota-ona ishtirokidagi tarbiya ko'plab hollarda bola ruhiyatida nomutanosiblik keltirib chiqaradi. Oilada rol o'zgaruvchanligi, ya'ni har bir a'zo kerakli vaqtda bir-birini qo'llab-quvvatlash, vazifalarni almashish orqali ruhiy barqarorlikka erishish mumkin.

Psixologik muvozanatni saqlash uchun oilada doimiy tarzda suhbat, baham ko'rish, birgalikda vaqt o'tkazish, hissiy yaqinlikni oshiruvchi mashg'ulotlar — masalan, birga ovqatlanish, sayr qilish, stol o'yinlari o'ynash, farzandlar bilan samimiy suhbatlar qilish kabilar amaliy jihatdan juda muhim hisoblanadi. Shuningdek, oila a'zolari bir-biriga minnatdorchilik bildirish, mehr ko'rsatish, e'tiborli bo'lish orqali bir-biriga bo'lgan emotsional bog'liqlikni kuchaytiradilar. Shu bilan birga, oila ichki muammolarini psixologik jihatdan sog'lom tarzda hal etish uchun ba'zan professional yondashuvga murojaat qilish, ya'ni oilaviy psixolog xizmatidan foydalanish ham zarur bo'lishi mumkin. Bu orqali mavjud muammolarning ildizi aniqlanadi, emotsional o'zaro bog'liqlik mustahkamlanadi va shaxslar o'zining ichki holatini tahlil qilishni o'rganadi.

Oilaviy psixologik muvozanat — bu bir vaqtning o‘zida hissiy, axloqiy va muloqot madaniyatiga asoslangan barqarorlik bo‘lib, uni saqlash va rivojlantirish oila a‘zolarining har birining ongli ishtirokini talab qiladi. Aynan shu muvozanat farzandlarning shaxsiy rivojlanishi, ruhiy salomatligi va kelajakdagi ijtimoiy muvaffaqiyatida asosiy omil hisoblanadi.

Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bola bilimni faol o‘zlashtiruvchi subyekt hisoblanadi. U atrof-muhit bilan o‘zaro ta‘sir jarayonida yangi tushunchalarni shakllantiradi. Oila esa ushbu jarayonning ilk va asosiy muhitini tashkil etadi. Ota-onalarning bolaga bo‘lgan munosabati uning kognitiv rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Qo‘llab-quvvatlovchi, rag‘batlantiruvchi va tushunuvchi munosabat bola intellektual faolligini oshiradi. Aksincha, beparvolik yoki haddan tashqari nazorat bolaning mustaqil fikrlashini cheklashi mumkin.

Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bola rivojlanishi ijtimoiy muloqot va kattalar bilan hamkorlik jarayonida amalga oshadi. Shu bois ota-onalar bilan muloqot bolaning “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytiradi.

Oilada kitob o‘qish odatini shakllantirish, suhbatlar olib borish, mantiqiy o‘yinlar o‘ynash va savol-javoblar tashkil etish bola kognitiv rivojlanishini sezilarli darajada tezlashtiradi. Bu jarayonlar uning xotirasi va tafakkurini mustahkamlaydi. Shuningdek, oilada ijobiy emotsional muhit bola diqqatining barqaror bo‘lishiga yordam beradi. Stress va nizolar esa diqqatning buzilishi va o‘qish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bolaning oilada shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta‘sir etuvchi asosiy omillardan biri bevosita muhit va mikromuhit hisoblanadi. Avvalo, bu bolaning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, xarakterini shakllantiruvchi jamoa — ota-onalar, qarindoshlar, tengdoshlar, maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyachilari hamda maktab pedagogik jamoasidir.

Mikromuhit insonga ikki yo‘nalishda ta‘sir ko‘rsatadi:

birinchidan, jamiyat tomonidan shakllantirilgan stereotiplar, ya‘ni an‘analar, qoidalar, me‘yorlar va kundalik hayotdagi odatiy sharoitlar orqali;

ikkinchidan, yaqin muhitning o‘ziga xos xususiyatlari orqali. Ayniqsa, oila muhiti bolada xarakter xususiyatlarining shakllanishiga eng kuchli ta’sir etuvchi asosiy omil hisoblanadi.

Bir qator olimlar ta’kidlaganidek, “oilal — bu avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan, milliy qadriyat va urf-odatlarini saqlaydigan, shuningdek, kelajak avlod qanday inson bo‘lib yetishishini belgilovchi muhim tarbiya maskanidir”. Bola tug‘ilganidan boshlab aynan oila muhitida yashaydi va o’sadi. Oilaga xos an’analar, qadriyatlar va urf-odatlar bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi va his qiladi. Darhaqiqat, kelajagimiz poydevori bo‘lgan yosh avlod tarbiyasi avvalo oilada boshlanadi. Shaxsga xos xarakter xususiyatlari, shuningdek, milliy mentalitetga xos bo‘lgan kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, vatanga muhabbat va burch hissi kabi fazilatlar ham oilada shakllanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, bolalarda xarakter xususiyatlarining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar oilada shakllanadi. Biroq nosog‘lom oilaviy muhitda tarbiya topayotgan bolalarda salbiy individual psixologik xususiyatlar shakllanishi ham kuzatiladi. Aynan bolalar o‘rtasida uchrayotgan deviant xulq-atvor — jinoyatchilik, giyohvandlik, agressivlik, suitsid kabi holatlar ko‘pincha oiladagi noto‘g‘ri shaxslararo munosabatlar natijasidir. Bunga ota-onalarning farzand tarbiyasiga befarqligi, oilada sog‘lom muhitning yo‘qligi hamda ota-onalarning bola psixologiyasini yetarli darajada tushunmasligi sabab bo‘ladi. Shu bois ota-ona va farzand munosabatlarining psixologik jihatlarini ilmiy asosda o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Birinchiidan, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar inson ongiga bevosita ta’sir qiladi va unda chuqur iz qoldiradi.

Ikkinchiidan, tashqi muhit ta’sirining mustahkam bo‘lishiga insonning o‘zi ham yordam beradi. Ma’lumki, bolalar tabiatan taqlidchan bo‘lib, kattalarning xulq-atvorini kuzatish orqali yaxshi yoki yomon xatti-harakatlarni o‘zlashtiradilar. Bugungi globallashuv jarayonlari ta’sirida oilaning etnopsixologik xususiyatlarida ayrim o‘zgarishlar yuz

bermoqda. V.V. Boyko fikriga ko‘ra, zamonaviy oilalarda quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

Birinchi, oilaning nuklear shaklga o‘tishi (ota-ona va farzandlardan iborat kichik oila) natijasida bolada ijtimoiy muhit torayadi. Bunday oilalarda shaxslararo munosabatlar doirasi cheklangan bo‘lib, taqlid uchun namunalar ham kamroq bo‘ladi.

Ikkinchi, oiladagi bir xil va qat’iy munosabatlar bolada ota-ona xulqini ko‘r-ko‘rona qabul qilishga olib keladi. Bu esa uning ijtimoiy tajribasini cheklaydi. Shuningdek, zamonaviy oilalarda insonparvarlik tajribasining kamayishi, kommunikativ bag‘rikenglikning yetishmasligi va oila a‘zolari o‘rtasidagi muloqotning sustligi kuzatiladi. Natijada bolalarda “men” tushunchasi kuchayib, ba‘zan ota-onaga qarshi chiqish, mustaqillikni noto‘g‘ri ifodalash holatlari yuzaga keladi. Oiladagi begonalashuv esa bolalarning norasmiy guruhlariga qo‘shilishi, ko‘proq ijtimoiy tarmoqlar va tashqi muhitga bog‘lanib qolishiga olib keladi.

V.V. Boyko bunday holatlarni ota-onaning haddan tashqari talabchanligi, befarqligi yoki noto‘g‘ri munosabati bilan izohlaydi. Masalan, haddan tashqari qat’iylik bolada agressivlikni kuchaytirsa, doimiy tanqid qilish esa o‘z-o‘ziga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Juda yumshoq yoki befarq munosabat esa mas’uliyatsizlikka olib keladi. Shu sababli “tarbiyasi qiyin” bolalar ko‘pincha noto‘g‘ri oilaviy muhit mahsuli hisoblanadi. L.S. Vygotskiy ta’kidlaganidek, qiyin xulqli bolalar noto‘g‘ri munosabatlar natijasidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oilaviy munosabatlar bola kognitiv rivojlanishining asosiy psixologik omillaridan biridir. Sog‘lom, qo‘llab-quvvatlovchi va barqaror oilaviy muhit bolada yuqori intellektual salohiyat va mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Nishonova Z.T. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Karimova V.M. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent, 2019.

5. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2018.
6. Jean Piaget. Kognitiv rivojlanish nazariyasi.
7. Lev Vygotsky. Ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi.